
EYIB
EDUCATIONAL YIELD
INSIGHTS & BREAKTHROUGHS
TA'LIMGA OID TUSHUNCHALAR VA YUTUQLAR
ISSN:3060-4648
Vol.8 №3
https://eyib.uz



Billur idishdan raqamli to’rgacha yohud “Tilla baliqcha” va bugungi avlod

Abdullayeva Aziza Nosir qizi

Nizomiy Ganjaviy nomidagi O‘zMPU, O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi, 2-bosqich magistranti
abdullayevaazizaxon0710@gmail.com

Annotatsiya

Abdulla Oripovning “Tilla baliqcha” she’ri o‘zbek adabiyotining durdonalaridan biri bo‘lib, unda insonning tor muhitdagi cheklanganligi va dunyoqarashining torligifalsafiy mushohadalar bilan ifodalangan. Ushbu maqolada she’rning 21-asr konteksidagi yangi talqini taklif etiladi. Xususan, she’rdagi “ko‘l obrazi “o‘rgimchak to‘ri”ga, “tilla baliqcha” obrazini esa “bola”ga ramziy bog’lab, zamonaviy jamiyatda bolalarning axborot va virtual dunyo ta’sirida qanday “o‘rgimchak to‘ri”ga ilinayotgani, ularning dunyoqarashini erkinligiga ta’sirini tahlil qilish maqsad qilingan. Maqolada Suvon Meli va Matyoqub Qo’shjonov kabi adabiyotshunoslarning tahlillariga tayangan holda, “Tilla baliqcha” she’rining yangi zamonaviy falsafiy-ijtimoiy qirralari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Abdulla Oripov, Tilla baliqcha, she’riyat tahlili, 21-asr talqini, o‘rgimchak to‘ri, virtual dunyo, bolalar dunyoqarashi, adabiy tanqid.

АННОТАЦИЯ: Поэма Абдуллы Орипова «Тилла баличча» — один из шедевров узбекской литературы, в котором ограничения человека в узком мире и ограниченность его мировоззрения выражены посредством философских размышлений. В данной статье предлагается новая интерпретatsiя поэмы в контексте XXI века. В частности, образ «озера» в поэме символически связан с «паутиной», а образ «тиллы баличчи» — с «ребенком», и цель состоит в анализе «паутины», в которую попадают дети в современном обществе под влиянием информatsионного и виртуального мира, и в том, как это влияет на свободу их мировоззрения. Статья, основанная на анализе литературоведов, таких как Сувон Мели и Матёкуб Кушёнов, раскрывает новые современные философские и социальные аспекты поэмы «Тилла баличча».

Ключевые слова: Абдулла Орипов, Тилла Баличча, анализ поэзии, интерпретatsiя XXI века, паутина, виртуальный мир, детское мировоззрение, литературная критика.

ABCTRACT: Abdulla Oripov's poem "Tilla balichcha" is one of the masterpieces of Uzbek literature, in which the limitations of man in a narrow environment and the narrowness of his worldview are expressed with philosophical

observations. This article offers a new interpretation of the poem in the context of the 21st century. In particular, the image of the "lake" in the poem is symbolically linked to the "spider's web", and the image of the "tilla balichcha" to the "child", and the aim is to analyze the "spider's web" in which children are caught in modern society under the influence of the information and virtual world, and the impact on the freedom of their worldview. The article, based on the analyses of literary scholars such as Suvon Meli and Matyokub Kushjonov, reveals new modern philosophical and social aspects of the poem "Tilla balichcha".

Keywords: Abdulla Oripov, Tilla Balichcha, poetry analysis, 21st century interpretation, spider web, virtual world, children's worldview, literary criticism.

XX asrning o‘zbek she’riyati taraqqiyotida Abdulla Oripov ijodi alohida estetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir poetikasining asosiy jihati shundaki, unda oddiy hayotiy detallar falsafiy va ontalogik ma’no tashuvchi ramzlarga aylantiriladi. Bu ramzlar she’rda katta ma’naviy-falsafiy mazmun tashuvchi obrazlarga aylanadi. Shoirning “Tilla baliqcha” she’ri ana shunday falsafiy lirikaning yorqin na’munasidir. Abdulla Oripovning “Tilla baliqcha” she’ri 1965-yilda yozilgan bo‘lib, unda insonning o‘z muhiti bilan cheklanganligi, dunyoqarshining torligi va shu tor dunyoda yashashga mahkumligi fojeasi tasvirlangan. She’rdagi asosiy poetik unsurlar - “loyqa hovuz”, “tilla baliqcha”, “tashlandiq ushoq”, “xor-u xas, xazonlar”-chuqur ramziy ma’noga ega. “Loyiqa hovuz” inson yashayotgan tor, cheklangan muhitni, “tilla baliqcha” esa shu muhitda umr kechirayotgan, ammo aslida undan ko‘proq narsaga qodir bo‘lgan insonni anglatadi. She’rda aks etgan tashlandiq ushoq va xor-u xaslar esa shu muhitdagi arzimas, ammo baliqcha uchun yagona ozuqa vositasi bo‘lgan narsalarni ifodalaydi. Mazkur she’r yuzasidan o‘z davrida adabiyotshunoslar tomonidan turlicha talqinlar ilgari surilgan. Ushbu she’r o‘zbek adabiy tanqidchiligida o‘ziga xos “sinov maydoni” vazifasini o‘tab kelmoqda. Akademik Abdug‘afur Rasulov o‘zining “Tanqid, talqin, baholash”(2006) kitobida ushbu she’r atrofidagi munozaralarni chuqur tahlil qilib, adabiyotshunoslikdagi turli bosqichlarni ko‘rsatib beradi[1].

Dastlabki talqinlarda, xususan, akademik Matyoqub Qo‘shjonov qarashlarida tilla baliqcha obrazi ijtimoiy-axloqiy nuqtayi nazardan “meshchanlik” (biqiqlik, faqat o‘z manfaati bilan yashash) timsoli sifatida baholangan[2]. Qo‘shjonov baliqchaning loyqa hovuzdagi hayotini uning o‘z tanlovi, ya’ni keng ummonlardan qo‘rqib, tor va loyqa bo‘lsa-da, xavfsiz muhitni afzal ko‘rishi, deb talqin qilgan. Bu qarashda baliqcha - salbiy tip, turg‘unlik ramzidir. Ushbu dastlabki talqinlarga qo‘shimcha ravishda, “Tilla baliqcha” she’ri va undagi obrazning kanonlashib qolgan talqini Ozod Sharafiddinov tomonidan “O‘zbek sovet ensiklopediyasi” (6-tom, 391-bet) sahifalarida ham o‘z aksini topgan. Unda shunday deyiladi: “Abdulla Oripovning “Tilla baliqcha” she’rida pupanak bosgan biqiq hovuzdan boshqani tan olmaydigan, hayotning katta oqimidan cho‘chib, bir chekkada hayot kechiruvchi “tilla baliqlar” – ba’zi meshchanlar qoralangan. Bu kichik she’r meshchanlik psixologiyasini qoralovchi, uning ustidan chiqarilgan lirik hukmdir”[3]. Bu xulosalar davr adabiy jamoatchiligida talqin naqadar keng tarqalgan va normativlashib qolganini ko‘rsatadi.

[1] Rasulov A. “Tanqid, talqin, baholash”, Toshkent, 2006
[2] Qo’shchonov M. O’zbek adabiyoti masalalari.
[3] “O’zbek sovet ensiklopediyasi” 6-tom, 391-bet.

Biroq, 1980-yillarning oxiriga kelib, tanqidchi Yashar Qosimov o‘zining “Tilla baliqcha tolei” (“Sharq yulduzi”, 1986, 12-son) maqolasi bilan bu kanonlashgan talqinni tubdan shubha ostiga oldi va o‘zining yangi talqinini taqdim etdi. Ya.Qosimov she’rdagi tilla baliqcha obrazini “yomonlikning timsoli sifatida salbiy tip deb talqin qilishga” e’tiroz bildirar ekan, ko‘p hollarda u haq edi. Jumladan, M. Qo‘shjonov talqinida she’rni tushunishdagi ba’zi noaniqliklar, masalan, “Xor-u xas, xazonlar ustin yopdilar” misrasini “Xor-u xas xazonlar bilan ustin yopibdi” tarzida o‘zgartirib, oqibatda tilla baliqchani ayblashga xizmat qildirilgani ham bor gap[4].

Keyinchalik Suvon Meli o'zining “Tilla baliqcha fojiasi” (1989) tadqiqotida bu ikki qarashni dialektik birlashtirdi. Uning fikricha, Yashar Qosimov ko‘p jihatdan haq bo‘lsa-da, uning yangi talqinida ham bir yoqlamalik bor edi. Agar M. Qo‘shjonov va boshqalar tilla baliqchani manfaatparast, xudbin kimsalarning timsoli sifatida tamom salbiy baholasa, Yashar Qosimov uni nobop zamonning qurboni sifatida tamom ijobiy baholaydi[5].

Suvon Meli ta’kidlaganidek, har ikkala fikrda ham ma’lum jon borligini tan olgan holda aytish mumkinki, yakka-yakka olinganda mazkur fikrlarning har biri she’rga bir tomonlama yondashuvdir. Ilmiy haqiqat ularning dialektik birligidan bunyod bo'ladi. M. Qo'shjonovning Yashar maqolasi haqidagi “Haqiqiy badiiy asarni har kim har xil tushunadi va talqin qiladi. She’r haqidagi mening fikrim ham to‘g‘ri, yosh munaqqid talqini ham mantiqqa zid emas” degan javobi ham bu fikrni tasdiqlaydi[6].

Filologiya fanlari doktori Abdug‘afur Rasulov o‘zining “Tanqid, talqin, baholash” (2006) asarida yuqoridagi barcha qarashlarni umumlashtirib, ularni ilmiy sintez qiladi. Rasulov talqinni shunchaki matnni tushunish emas, balki uni yangi davr kontekstida baholash ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, “Tilla baliqcha” har bir davr o‘quvchisi uchun yangicha ma’no kasb etuvchi “ochiq asar”dir. Rasulov 21-asrda bu she’rni shunchaki ijtimoiy muhit emas, balki insonning ma'naviy biqiqligi va u o‘zi anglamagan holda tushib qolgan “yangi to‘rlar” nuqtayi nazaridan qayta o‘qish zarurligini ko‘rsatib berdi.

Biz bugun ushbu she’rni qayta zamonaviy tahlil qilmoqchimiz. Maqolaning asosiy maqsadi – “Billur idishdan o‘rgimchak to‘riga qadar” metaforasi orqali zamonaviy bolalar va ularning muhitini Abdulla Oripovning “Tilla baliqcha” she’ri kontekstida yangicha talqin qilishdir. Bunda she’rdagi “ko‘l” obrazini “o'rgimchak to‘ri”ga, “tilla baliqcha” obrazini esa “bola”ga ramziy bog‘lab, hozirgi kunda bolalarning virtual dunyo va ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida qanday “o‘rgimchak to‘ri”ga ilinayotgani, ularning dunyoqarashi va erkinligiga ta’sirini tahlil qilish ko‘zda tutilgan. Ushbu talqin orqali she’rning zamonaviy jamiyatdagi dolzarbligi va falsafiy chuqurligi ochib beriladi. Zamonaviy bolalar dunyosi murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning hayoti ko‘pincha “billur idish”ga qiyoslanishi mumkin. Bu “billur idish” bir tomondan, bolalarni tashqi xavf-xatarlardan himoya qiluvchi, ularga qulaylik va xavfsizlikni ta’minlovchi muhitni anglatadi. Ota-onalar, ta’lim muassasalari va jamiyat bolalarni har qanday salbiy ta’sirlardan asrashga intiladi. Ammo, bu himoyalangan

[4] Meli S. “Tilla baliqcha fojeasi” 1989.
[5] Meli S. “Tilla baliqcha fojeasi” 1989
[6] Meli S. “Tilla baliqcha fojeasi” 1989

muhitning ikkinchi tomoni ham bor - u bolalarni real dunyodan, hayotiy qiyinchiliklardan izolyatsiya qilib qo'yishi mumkin.

Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.

Bu satrlar bolaning tug‘ilishi bilanoq raqamli dunyoga “tashlanishi”ni ifodalaydi. Bola hali o‘zligini anglamasdanoq, unga virtual olam eshiklari (smartfon, planshet) ochib beriladi. “Loyqa hovuz” - bu internetning saralanmagan, tartibsiz va ma’naviy bulg‘angan axborot qatlamidir. Bola bu yerga o‘z ixtiyori bilan kirmaydi, uni muhit va kattalar “otadilar”.

Tashlandiq ushoq yeb o‘tadi kuni,
Xor-u xas, xazonlar ustin yopdilar.

Virtual dunyodagi “tashlandiq ushoq”i - bu yuzaki bilimlar, qisqa va ma’nosiz videolar, axborot chiqindilaridir. “Xor-u xas” va “xazonlar” esa bugungi kunning algoritmlari va “o‘rgimchak to‘ri”dir. Bola bu to‘rga o‘ralashib qolganini sezmaydi. Ijtimoiy tarmoqlardagi “layk”lar, soxta e’tiroflar uning ustini xazondek yopib, haqiqiy dunyodan uzib qo‘yadi. U o‘zini “tilla” (noyob) deb his qiladi, lekin bu “tilla”lik faqat ekrandagi piksellarda aks etadi.

Dunyoda ko‘rgani shu tor hovuzcha
Va mudroq tollarning achchiq xazoni.

“Tor hovuzcha” - bu smartfon ekrani va ijtimoiy tarmoqlarning cheklangan ramkasidir. Bola dunyoni faqat shu ekran orqali ko‘radi. “Mudroq tollar” - bolaning atrofidagi haqiqiy hayot, befarq qolgan tabiat va virtual dunyoga g‘arq bo‘lgan ota-onalardir. Ularning “achchiq xazoni” bolaning ruhiyatiga sovuqlik va yolg‘izlik olib kiradi.

Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir ko‘lmak hovuz deb bilar dunyoni...

She’rning eng tanqidiy nuqtasi shundaki, bola (tilla baliqcha) o‘zi yashayotgan virtual “ko'lmak”ni haqiqiy dunyo deb o'ylaydi. Uning uchun “layk”lar ta’siridagi virtual obro‘ - hayotning asl mazmuniga aylanadi. U ummonlarni (haqiqiy ilm, tirik muloqot, yuksak ma’naviyat) bilmaydi va bilishni ham istamaydi. Bu - zamonaviy insoniyatning intellektual va ma’naviy tanazzuli haqidagi ogohlantirishdir.

Xulosa o‘rnida Abdulla Oripovning “Tilla baliqcha” she’ri Abdug‘afur Rasulov aytganidek, har doim yangilanib turuvchi asardir. Agar 20-asrda u ijtimoiy-siyosiy turg‘unlik ramzi bo'lgan bo‘lsa, 21-asrda u texnologik mahkumlik va virtual o‘rgimchak to‘riga aylandi. Bola - bu to‘rga oralashib qolgan, “layk”lar ta’sirida o‘zining “ko‘lmak” dunyosini jannat deb biluvchi fojiaviy qahramondir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu tipdagi badiiy asarlar davrlar kesimida vaqti-vaqti bilan qayta baholanishi, yangicha yondashuvlar asosida o‘rganilishi lozim, zero, u bizning bugungi qiyofamizni ko‘rsatuvchi ko‘zgudir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oripov, A. (1965). “Tilla baliqcha”. (She’r matni turli adabiy to’plamlarda mavjud)
2. Rasulov A. “Tanqid, talqin, baholash”, Toshkent, 2006
3. .Qo‘shjonov M. “O‘zbek adabiyoti masalalari”.
4. “O‘zbek sovet ensiklopediyasi", 6-tom, 391-bet.
5. Meli S. “Tilla baliqcha fojiasi”, 1989..